

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK
TIJORAT BANKI HAMDA “YAGONA
UMUMRESPUBLIKA PROTSASSING MARKAZI”
AJ HAMKORLIGIDA AKSIYA O‘TKAZISH
BO‘YICHA OMMAVIY OFERTA**

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, ommaviy oferta hisoblanadi va “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki hamda “Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi” AJ hamkorligida aksiya o‘tkazish (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) shartlarini, unda ishtirok etish shartlarini, aksiya sovrini, aksiya o‘tkazish davri, g‘olibni aniqlash, unga sovrinni topshirish tartibini, Aksiya tashkilotchisi va ishtirokchilarining huquq hamda majburiyatlarini, shuningdek ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa qo‘shimcha shartlarni belgilaydi.

1.2. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan o‘yin hisoblanmaydi.

1.3. Aksiyada ishtirok etish majburiy emas.

1.4. Aksiya tashkilotchisi — “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – Bank).

Tashkilotchining aloqa ma’lumotlari:

Telefon raqami: +998 71 202 01 01;

Yuridik manzil: 100011, O'zbekiston R, Toshkent sh., Shayxontoxur tumani, Abay ko‘chasi, 4a;

E-mail: info@turonbank.uz ;

Veb-sayt: www.turonbank.uz .

1.5. Tashkilotchi hamkori — “Yagona umumrespublika protsessing markazi” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Uzcard).

Tashkilotchi hamkorining aloqa ma’lumotlari:

Telefon raqami: +998 71 200 28 28;

Yuridik manzil: 100011, O'zbekiston R, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘ch., 78;

E-mail: help@uzcard.uz ;

Veb-sayt: www.uzcard.uz .

1.6. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida, Bank tizimi doirasida o‘tkaziladi.

1.7. **Aksiya muddati: Mazkur oferta bankning rasmiy veb-saytida e‘lon qilingandan boshlab 2026-yil 30-noyabrgacha (shu kun ham kiradi);**

G‘olibni aniqlash muddati: 2026-yil 10-dekabr;

G‘olibga sovrinni topshirish: 2026-yilning 25-dekabrigacha (shu kun ham kiradi) amalga oshiriladi.

1.8. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchining Ommaviy oferta Qoidalarga to‘liq va so‘zsiz rozilik bildirganini anglatadi.

2-bob. Aksiya ishtirokchilari

2.1. **Aksiyada 18 yoshga to‘lgan muomalaga layoqatiga ega jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari (rezidentlar) ishtirok etishi mumkin.**

2.2. **Aksiyada “Turonbank” ATB hamda “Yagona umumrespublika protsessing markazi” AJ xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari ishtirok etmaydi.**

2.3. Aksiyada ishtirok etish bepul bo‘lib, Ishtirokchilardan hech qanday qo‘shimcha to‘lovlar talab etilmaydi. Bankning amaldagi tariflariga muvofiq bank xizmatlari uchun undiriladigan to‘lovlar bundan mustasno hisoblanadi.

3-bob. Aksiyada ishtirok etish shartlari

3.1. Ushbu aksiyada, aksiya shartlari bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan kundan boshlab 2026-yil 30-noyabrgacha (shu kun ham kiradi), Bank va Uzcard hamkorligida emissiya qilingan yangi "Uzcard" kartalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar asos qilib olinadi.

3.2. Mazkur aksiyada ishtirok etish uchun mijoz aksiya muddati davomida **quyidagi shartlarni bajarishi lozim:**

3.2.1. "Turonbank" ATB tizimida aksiya muddati davomida yangi "Uzcard" to'lov tizimi kartasini rasmiylashtirish;

3.2.2. Aksiya muddati davomida mazkur "Uzcard" kartasi orqali umumiy summasi 100 000 (yuz ming) so'mga teng yoki undan ortiq bo'lgan naqd pulsiz tranzaksiyalarni amalga oshirish.

3.3. Ushbu aksiyada valyuta ayirboshlash amaliyotlari hamda bankomat va terminallar orqali naqd pul yechib olish amaliyotlari **inobatga olinmaydi.**

3.4. Yuqoridagi talablarga javob beruvchi har bir tranzaksiya Ishtirokchiga Aksiya bo'yicha g'olib bo'lish ehtimolini oshiruvchi 1 (bitta) imkoniyat beradi. Tranzaksiya miqdori hisoblangan imkoniyatlar soniga ta'sir qilmaydi.

3.5. Ommaviy oferta Qoidalarga rioya qilinmagan taqdirda, Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etish va (yoki) sovrin olish huquqidan mahrum etiladi.

3.6. Sovrinni olish uchun Ishtirokchi Aksiya muddati davomida va sovrin topshirilgunga qadar Ommaviy oferta Qoidalarga muvofiq barcha talablarni bajarishi shart.

3.7. Bank Ommaviy oferta Qoidalariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi hamda Bank mazkur o'zgartirishlar va qo'shimchalar kuchga kirishidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin www.turonbank.uz rasmiy veb-saytida tegishli e'lon joylashtiradi. Bank Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishi bilan bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday zarar, yo'qotishlar, xarajatlar va boshqa sarf-xarajatlarni qoplash majburiyatini olmaydi.

3.8. Ishtirokchi tomonidan Aksiya shartlariga rioya qilinmasligi oqibatida yuzaga keladigan har qanday holatlar uchun Tashkilotchi javobgar hisoblanmaydi.

4-bob. Aksiya sovrini

4.1. Aksiya sovrin jamg'armasi Tashkilotchi tomonidan, shu jumladan Hamkorning moliyaviy ko'magi asosida shakllantiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

4.1.1. **bir dona qora "Tracker-2 TRK LS PLUS" avtotransport vositasi.**

Sovrin Bank tomonidan aksiya muddati yakuniga ko'ra g'olib deb topilgan Ishtirokchiga Ommaviy oferta Qoidalarida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda beriladi.

4.2. Sovrin Tashkilotchi tomonidan belgilanadi. Tashkilotchi sovrin qiymati va iste'mol xususiyatlarini kamaytirmagan holda ularning soniga o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

4.3. Aksiya Sovrini tashqi ko'rinishi, hajmi, rasmi, o'raining rangi va Ommaviy ofertada aniq belgilanmagan boshqa xususiyatlari reklama materiallarida keltirilgan tasvirlarga va Ishtirokchilarning shaxsiy kutilmalariga mos kelmasligi mumkin. Aksiyaning Sovrini sifatida taqdim etilgan tovarning sifati, ishlash qobiliyati va boshqa xususiyatlari uchun javobgarlik ushbu tovarlarni ishlab chiqaruvchi/yetkazib beruvchi zimmasida bo'ladi.

4.4. Sovrin pul mablag'lariga yoki boshqa turdagi kompensatsiyaga almashtirilmaydi. Zarur hollarda sovrin faqat Tashkilotchi tashabbusi bilan teng qiymat va texnik xususiyatlarga ega boshqa sovringa almashtirilishi mumkin.

4.5. Bank sovrindan foydalanish davrida g'olibning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar hisoblanmaydi.

4.6. Sovrinni olish bilan bog'liq soliq majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi hamda Aksiya doirasida sovrin olish bilan bog'liq soliq majburiyatlarini bajarish uchun g'oliblar shaxsan javobgar hisoblanadi.

5-bob. Aksiyani o'tkazish davri va g'olibni aniqlash tartibi

5.1. Aksiya davri Ushbu Oferta bank rasmiy veb-saytiga joylashtirilganidan boshlab 25-dekabrgacha bo'lgan muddatni qamrab oladi.

5.2. Aksiya qamrovi kamida 20 (yigirma) ming nafar shartlarni bajargan ishtirokchilarni tashkil qilgan taqdirda o'tkaziladi, aks holda aksiya muddati qayta ko'rib chiqilib, o'zgarish to'g'risida bank rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

5.3. Aksiya g'olibi ishtirok etgan shaxslar orasida Bank tizimida tashkil etilgan 5 (besh) kishidan iborat Maxsus komissiya a'zolari nazoratida 2026-yil 10-dekabrida tasodifiy sonlar generatori yordamida tasodifiy tanlash usuli bilan aniqlanadi.

5.4. G'olibni tasodifiy sonlar generatori yordamida aniqlashda, aksiya ishtirokchilari tomonidan belgilangan shartlarga muvofiq emissiya qilingan bank kartalari orqali 2026-yilning 30-noyabrigacha (shu kun ham kiradi) amalga oshirilgan tranzaksiyalar asos qilib olinadi. Bunda mazkur tranzaksiyalar ro'yxati Bank tomonidan shakllantiriladi. Bankda mavjud ma'lumotlarning ishonchligiga shubha tug'ilganda, ma'lumotlarni aniqlashtirish maqsadida "Yagona umumrespublika protsessing markazi" aksiyadorlik jamiyati ko'maklashadi.

5.5. Random dasturi orqali aniqlangan aksiya ishtirokchisining tranzaksiya ID raqami egasi g'olib deb e'lon qilinadi.

5.6. Maxsus komissiya a'zolari nazoratida Aksiya g'olibini aniqlash jarayoni bankning instagram ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasi orqali jonli efirga uzatib boriladi.

5.7. **Aksiya g'olibi bilan Bank Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan telefon raqami orqali bog'lanadi.**

5.8. Tashkilotchi vakillari biror sababga ko'ra Aksiya g'olibi bilan bog'lana olmagan taqdirda, Aksiya g'olibi sovrin topshirish marosimidan oldingi muddatda Call-markazi orqali ma'lumot va qayta aloqa uchun bog'lanishga xizmat qiluvchi telefon raqamini taqdim etish uchun Tashkilotchi vakillari bilan bog'lanish majburiyatini oladi. Agar g'olib belgilangan muddatda sovrinni olish uchun kelmasa, g'olibning natijasi bekor qilinadi va u sovrinni olish huquqidan mahrum qilinadi.

5.9. Aksiyada ishtirok etish fakti shuni anglatadiki, Ishtirokchilar o'zlarining ismlari, familiyalari, fotosuratlar va ular haqidagi boshqa materiallardan Tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida, O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan hajmda va usullarda, maxfiy axborotni oshkor qilmasdan, ularga hech qanday haq to'lamasdan foydalanilishiga rozilik beradilar.

6-bob. Aksiyaga g'olibga sovrinni topshirish tartibi

6.1. Aksiya g'olibi aniqlanib, g'olib ishtirokchi bilan bog'lanilgach, sovrin 2026-yil 25-dekabriga qadar taqdirlash marosimi orqali topshiriladi.

6.2. Sovrinni olish uchun g'olib Tashkilotchi vakiliga taqdirlash marosimidan kamida 3 (uch) bank ish kunidan oldin quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- pasport yoki ID karta asl nusxasi;
- belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan Sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;
- sovrinni topshirish bo'yicha notarial tasdiqlangan shartnoma;
- sovrin olinganligi to'g'risida rasmiylashtirilgan tilxat;
- Sovrinni olish bilan bog'liq soliq majburiyatlari G'olib tomonidan bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat.

6.3. Aksiya g'olibining mukofotni olish uchun taqdirlash marosimiga kelmasligi g'olibning mukofotni olishdan bosh tortishi hisoblanadi. Bu holatda g'olibning natijasi bekor qilinadi va u sovrinni olish huquqidan mahrum bo'ladi.

6.4. Ishtirokchi mazkur aksiya doirasida g'olib deb topilgan taqdirda ushbu aksiya doirasida o'zining ism familiyasi hamda taqdirlash marosimi bilan bog'liq fotosuratlarini Bankning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish bo'yicha majburiyatini oladi.

6.5. Sovrin faqat Aksiyada g'olib chiqqan bank kartalari egasiga, shuningdek uning qonuniy vakiliga beriladi. Tashkilotchi bank kartasining egasi yoki egasining qonuniy vakili bo'lmagan shaxsga sovrinni berishni rad etishga haqli. Mukofotni takroran olish mumkin emas, bunda g'olibning natijasi bekor qilinadi, mukofot olish huquqidan mahrum qilinadi.

6.6. Mazkur Aksiya doirasida Ishtirokchining va bank kartasining ro'yxatga olish ma'lumotlariga hech qanday o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunday hollarda Ishtirokchi Aksiyada ishtirok etishdan chetlashtiriladi, agar u Aksiya g'olibi deb topilgan bo'lsa - sovrinni olish huquqidan mahrum qilinadi.

6.7. Bank Aksiya ishtirokchilarining Aksiya shartlari yoki www.turonbank.uz saytida joylashtirilgan Aksiya qoidalari bilan tanishish imkoniyati yo'qligi, Aksiya bo'yicha sovrinlarni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni/hujjatlarni Aksiya ishtirokchilarining o'z aybi bilan yoki Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra o'z vaqtida ololmaganligi/olmaganligi, Ommaviy ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarni o'z vaqtida bajara olmaganligi/bajarmaganligi, Sovrinni olish bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaganligi yoki ularni olishdan bosh tortganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

7-bob. Aksiyaning qo'shimcha shartlari

7.1. Aksiya shartlari reklama videoroliklar, Bankning rasmiy ijtimoiy tarmoqlari, internet va boshqa axborot kanallari orqali e'lon qilinadi.

7.2. Aksiya bo'yicha ma'lumotlar Bankning rasmiy www.turonbank.uz veb-saytida joylashtiriladi.

7.3. Qo'shimcha ma'lumotlarni Bankning 1220 qisqa raqami orqali olish mumkin.

7.4. Aksiya o'tkazilishi muddatidan oldin to'xtatilgan, uning amal qilish muddati uzaytirilgan yoki ushbu Qoidalarga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tegishli ma'lumotlar Bankning rasmiy www.turonbank.uz saytiga joylashtiriladi.

7.5. Aksiya tashkilotchisi:

7.5.1. Aksiya ishtirokchilarining Aksiya shartlari yoki Tashkilotchi tomonidan www.turonbank.uz saytida joylashtirilgan Aksiya g'oliblari ro'yxati bilan tanishish imkoniyati yo'qligi

7.5.2. Aksiya bo'yicha sovrinlarni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni/hujjatlarni Aksiya ishtirokchilarining o'z aybi bilan yoki Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra o'z vaqtida ololmaganligi/olmaganligi

7.5.3. Aksiya g'oliblarining Sovrinlarni olish bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaganligi yoki ularni olishdan bosh tortganligi uchun javobgar bo'lmaydi

7.6. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi Ommaviy oferta Qoidalari bilan to'liq tanishganligini va ularga roziligini tasdiqlaydi hamda quyidagilarga o'z roziligini beradi:

7.6.1. Ommaviy oferta Qoidalarida nazarda tutilgan tartibda Aksiya g'oliblarini aniqlash;

7.6.2. Aksiyani o'tkazish jarayonida Ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxslarning huquqlari buzilishi munosabati bilan Tashkilotchiga uchinchi shaxslar tomonidan biror bir e'tiroz bildirilgan taqdirda, Ishtirokchi bunday nizolarni mustaqil hal qilish va Tashkilotchini uchinchi shaxslarning shikoyatlari va da'volaridan ozod qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi;

7.6.3. Aksiyada g'olib bo'lgan taqdirda Aksiya ishtirokchisi to'g'risidagi ma'lumotlarni www.turonbank.uz saytiga joylashtirish;

- 7.6.4. Tashkilotchi tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarga, shu jumladan maxsus va biometrik ma'lumotlarga ishlov berish, Tashkilotchi tomonidan Aksiya bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish maqsadida shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish
- 7.6.5. Aksiyada ishtirok etish to'g'risidagi reklama intervyularida, shu jumladan radio va televideniye, boshqa ommaviy axborot vositalari uchun, shuningdek, Tashkilotchi va/yoki uchinchi shaxslar tomonidan Tashkilotchining topshirig'iga binoan Ishtirokchilarni suratga olish va videotasvirga tushirishda ishtirok etish. Bundan tashqari, Ishtirokchi bilan yaratilgan foto va video yozuvlardan foydalanish uchun, bunday foydalanishga Ishtirokchining qo'shimcha roziligini olmasdan va bunday foydalanish uchun hech qanday haq to'lamasdan, mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlarni yuzaga keltirmasdan (hatto material reklama xususiyatiga ega bo'lsa ham).
- 7.7. Aksiya Tashkilotchisi olingan ma'lumotlarni to'plash va keyinchalik ulardan foydalanish jarayonida O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar va bank sirini himoya qilish bo'yicha amaldagi qonunchiligining barcha qoidalariga rioya etilishini kafolatlaydi. Axborotni boshqa shaxslarga faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda berish mumkin. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan harakatlarni bajarish fakti Aksiya Ishtirokchisining shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga roziligini anglatadi.
- 7.8. Tashkilotchi ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan holatlardan tashqari, Aksiyaning boshqa Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar olib bormaslik yoki boshqa aloqalar o'rnatmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.9. Firibgarlik harakatlari, til biriktirish, ma'lumotlarni soxtalashtirish, Tashkilotchi yoki uning vakillari, shuningdek, sovrinni olishdan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita kelishuvlar mavjudligi, yagona Ishtirokchi bilan har qanday boshqa harakatlar aniqlanganda, shuningdek, Ishtirokchilar guruhining birgalikdagi ishtiroki aniqlanganda, Tashkilotchi o'yin natijalarini bir tomonlama bekor qilish va Aksiya g'olibini qayta tanlab olishni e'lon qilish huquqiga ega.
- 7.10. Aksiya Tashkilotchisi istalgan vaqtda o'z rasmiy veb-saytida (www.turonbank.uz) tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali Aksiya qoidalarini o'zgartirish huquqiga ega. Aksiya Ishtirokchilari yuqorida ko'rsatilgan saytda (yuqorida ko'rsatilgan havola bo'yicha) tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali Aksiya qoidalarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart. Bunday tuzatishlar, agar ushbu Qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar/qo'shimchalarda bevosita boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 7.11. Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchisining xatolari, shu jumladan (boshqalardan tashqari) ko'rilgan zararlarning har qanday oqibatlarini uchun javobgar bo'lmaydi.
- 7.12. Tashkilotchi o'z ixtiyoriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalarni inobatga olgan holda, Aksiyada ishtirok etish uchun hujjatlarni qalbakilashtirayotgan yoki qalbakilashtirishdan foyda olayotgan yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablarini buzish maqsadida ushbu Qoidalarni buzgan holda harakat qilayotgan har qanday Ishtirokchining ushbu Aksiyada keyingi ishtirokini taqiqlashi mumkin.
- 7.13. Tashkilotchi istalgan paytda Aksiyada firibgarlikka to'sqinlik qiluvchi qo'shimcha texnik cheklovlarni joriy etish huquqini o'zida saqlab qoladi. Har qanday Ishtirokchining nohalol xatti-harakatlariga urinish aniqlangan taqdirda, uning natijalari bekor qilinadi, Ishtirokchining o'zi esa Aksiyada keyingi ishtirok etishdan chetlashtiriladi.
- 7.14. Tashkilotchi Aksiyada ishtirok etishning halolligini Tashkilotchining mavjud texnik imkoniyatlari asosida va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda ushbu Qoidalar qoidalarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda baholaydi.
- 7.15. Tashkilotchi tabiiy ofatlar, yong'in, suv toshqini, har qanday turdagi harbiy harakatlar, qamallar, pandemiya bilan bog'liq karantin choralari, Aksiya o'tkazilayotgan hududda amalda bo'lgan qonunchilikdagi jiddiy o'zgarishlar, Tashkilotchi tomonidan nazorat qilinmaydigan boshqa holatlar kabi

fors-major holatlar yuzaga kelganda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda javobgar bo‘lmaydi.

7.16. Taraflarning javobgarlik choralari, shuningdek nizolarni hal etish tartibi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq belgilanadi. Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal qilinishi kerak. Tinch yo‘l bilan murosaga kelish mumkin bo‘lmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining tegishli sudida ko‘rib chiqilishi lozim. Da’vo qilish tartibiga rioya qilish majburiydir.

7.17. Taraflar ushbu Oferta bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o‘z faoliyatida korrupsion harakatlarni to‘liq taqiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag‘lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta‘minlash, ma‘muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta‘minlashni to‘liq rad etadi. Taraflar o‘z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo‘lsa) talablariga amal qiladilar.

7.18. Taraflar ushbu Oferta bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish chog‘ida na o‘zlari, na ijroiya organi, na ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, Qarz oluvchi va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to‘lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to‘lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo‘lmasliklarini kafolatlaydi.

7.19. Taraflardan biri boshqa taraf tomonidan majburiyatlar buzilganligi to‘g‘risida xabardor bo‘lib qolgan taqdirda, ushbu taraf boshqa tarafni darhol xabardor qilishi va boshqa tarafdan tegishli choralarni ko‘rishni talab qilishi, shuningdek amalga oshirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida ma‘lumot berishi shart. Taraflar o‘rtasidagi yozma xabarnomalar **“Komplaens ishonch liniyasi”** orqali amalga oshiriladi (tel: 71-244-28-89, veb sayt: <https://turonbank.uz/>, telegram messenjeri: Turonbank AntiKor (@turonbankantikor_bot), elektron pochta: anticorrupt@turonbank.uz), bu tizim “Turonbank” ATB Tarafidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yaratilgan.

8-bob. Yakuniy qoidalar

8.1. Aksiya o‘tkazilishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Bank va Ishtirokchi o‘rtasida o‘zaro muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar sud orqali ko‘rib chiqiladi.

8.2. Ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

8.3. Ushbu Ommaviy oferta bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgandan boshlab 2026-yilning 25-dekabriga qadar amal qiladi.